

Termin leksikografiyaning tadqiqot obyekti sifatida

Saparbayeva Gulandam Masharipovna,
gulandoms1976@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Abu-Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtumizda hozirgi kungacha tilshunoslik tadqiqotlarida terminologiya va leksikografiya borasida olib borilgan tadqiqotlar va ularning tarixiy ilmiy manbalari borasida fikr yuritiladi. O'zbek terminologiyasi asosan sohaga oid atamalar va boshqa tillardan xususan rus tili orqali o'zlashgan narsa va predmet nomlari hisobiga yillar davomida boyib brogan, endilikda tilimizda ingliz tilidan o'zlashmalar hisobiga lug'at qatlami o'zgarayotganiga guvohmiz.. Ushbu maqolada termin va atama tushunchasiga ta'rif berilib, termin bu har qanday tilda bitta tushunchani anglatuvchi xalqaro so'z sifatida qabul qilingan bo'lsa, atama bu faqat muayyan tilgagina xos bo'lgan istalgan bir sohaning o'ziga xos shu sohani tanishtiruvchi narsa, predmet va harakatni ifodalovchi so'z sifatida qabul qilingan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, atama, atamashunoslik, so'z, leksika

A term as a research object of lexicography

Saparbayeva Gulandam Masharipovna,
gulandoms1976@gmail.com

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, docent
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

Annotation: This article discusses the research conducted in the field of linguistics in our country, specifically focusing on terminology and lexicography, as well as their historical scientific sources. Uzbek terminology has expanded over the years primarily through specialized terms and the adoption of names for objects and concepts from other languages, especially Russian. Nowadays, the lexicon of our language is also evolving due to borrowings from English. The article defines the concepts of "term" and "designation," explaining that a term is an internationally recognized word that represents a specific concept in any language, while a designation is a word specific to a certain language that represents an object, subject, or action related to a particular field.

Key words: term, terminology, designation, terminology studies, word, Lexicon

Термин как объект исследования лексикографии

Сапарбаева Гуландам Машариповна,
gulandoms1976@gmail.com

Доктор философии по филологическим наукам(PhD), доцент
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Аннотация. В данной статье рассматриваются исследования, проводимые в области лингвистики в нашей стране, в частности, исследования терминологии и лексикографии, а также их исторические научные источники. Узбекская терминология с течением времени обогатилась за счет специализированных терминов и заимствованных названий объектов и понятий из других языков, особенно из русского. В настоящее время лексика нашего языка также изменяется за счет заимствований из английского языка. В статье даются определения понятий «термин» и «обозначение», поясняется, что термин – это

международно признанное слово, обозначающее определенное понятие в любом языке, в то время как обозначение — это слово, характерное только для конкретного языка, которое обозначает объект, предмет или действие, относящееся к определенной области.

Ключевые слова: термин, терминология, название, обозначение, теория терминов, слово, лексика

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'z o'rni va mavqeiga egadir. Bugungi kunga kelib yurtimizda bolayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy-huquqiy tizimlaridagi islohotlarning tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar sonini ko'paytirmoqda. Bu hol shu sohada faoliyat yuritayotgan insonlardan o'z kasbiga oid termin va tushunchalar haqida to'liq va aniq ma'lumotga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasalish pritsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi. Termin so'zi interpretatsiyasining substansional, funksional, dervatsion, semantik va pragmatik prinsiplari e'tirof etilmoqda. Substansional nuqtai nazar vakillari fikriga ko'ra termin maxsus so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan bir ma'noliligi, aniqligi, sistemliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi.

Termin lotincha – “*terminus*” so'zidan olingan bo'lib, “oxiri”, – tugash”, “chek”, “chegara”, degan ma'nolarni bildiradi.

V.N. Shevchuk terminga quyidagicha ta'rif beradi: “Termin – bu so'z bo'lib, o'rta asrlarda “aniqlash”, “ifodalash” degan ma'nolarni anglatgan. Qadimgi fransuz tilida mavjud bo'lgan “*terme*” leksemasi “so'z” degan ma'noni anglatadi” (Norxo'jayeva, 2017).

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi.

A.V. Kalinin muayyan fanlar va kasbkorligida ishlatiladigan so'zlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi. 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari sohaga oid so'zlar ham kiradi. U o'z fikrini davom ettirib, – Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy sifatda qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi, nomidir. Professionalizm esa biror kasb, mutaxassislikka oid so'z bo'lib ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir” (M.E., 2006).

R. Doniyorov bu fikrga e'tirozan – bunday qat'iy da'vo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim “olim”larning qarashlari davomidir desak, xatoga yo'l qo'ymasmiz” deb munosabat bildiradi (Rashidova, 2020). H. Jamolxonov terminga munosabatda bo'lar ekan quyidagicha yozadi: “Terminlar fan-texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohlarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to'rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi” (Usmonov, 2020).

A.A. Reformatskiy esa buni quyidagicha izohlaydi: ‘Termin - bu so'z bo'lib o'zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralandi, fan, texnika, iqtisodiyot, siyosat va diplomatiya sohalarida bir ma'noli, aniq so'zdir². U ekspressivlikdan holi, muayyan predmet yoki tushunchani ifoda etuvchi, o'zining qat'iy va aniq mazmuniy chegarasiga hamda izohiga ega bo'ladi” V.P. Danilenko *termin* so'ziga quyidagicha aniqlik kiritadi: “Termin (lar) - lug'at tarkibining bir qismi hisoblanib, muayyan fan va soha leksik birliklarining aniq nomi, ta'rifidir” (Danilenko, 1977). B.N. Golovin esa termin haqida: kasb-hunar nuqtai nazaridan qaralganida termin o'zida muayyan kasbiy tushunchalarni ifoda etadi, - deb yozadi. (Golovin, 2005) Shunga o'xshash talqinni biz V. M. Leychikning ishlarida ham uchratishimiz mumkin. Uning fikriga ko'ra, termin muayyan tilning leksik birligi hisoblanib, aniq va

maxsus sohalar ilmida va faoliyatida umumiy, aniq yoki mavhum tushunchalarni ifodalaydi (Leychik, 2003).

G'.Abdurahmonov shunday yozadi: "Atamalarning aniqligi va qat'iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi" (Rasulov, 2010). Demak, terminologiyaning tartibga solinishi, muvofiq ravishda tarjima qilinishi nafaqat ilmiy sohada balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

Terminalogiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va kup ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, Terminalogiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich – chalao'tkazgich – nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qisho'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi.

Shu sababli ham terminalogiya ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminalogiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

A.A. Potebnya "keyingi ma'no" deb atagan va – u tilshunoslikning o'rganish ob'ektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar o'rganadi"(Potebnya, 1989) deb ko'rsatilgan terminologik leksika uzoq davrlargacha alohida nominativ birlik, atama sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinmadi. Tilshunoslik fani rivojlanib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o'rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o'rganish tilshunoslikning alohida sohasini - terminologiyani shakllantirdi.

Ammo shuni ham aytish o'rinliki, bu jarayonda ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o'rinsiz, sun'iy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors- tojikcha so'zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi. Masalan, bankrot - sinish, buxgalter - hisobchi, gazeta - ro'znoma, deputat - noib (xalq noibi), jurnal - majalla (jarida, oybitik, oynoma), institut - oliygoh, (ta'limgoh), klub - tomashgoh (tadbirogoh), kompensatsiya - tovon, medal - nishon, fakultet - kulliyot, kurs - bosqich, fonetika - tovushshunoslik, sinonim - ma'nodosh, omonim - shakldosh, antonim - zid ma'noli va hokazo.

Hozirgi paytda atamashunoslik bir qancha tadqiqot yo'nalishlariga bo'linadi:

1. *Nazariy terminologiya* – maxsus leksika (termin)larning rivojlanish va qo'llanish qonuniyatlarini o'rganadi.

2. *Amaliy terminologiya* – terminlarning amaliy prinsiplari, terminlar va terminologiyaning kamchiliklarini yo'qotish bo'yicha tavsiyalar, ularning qo'llanilishi, yaratilishi va tarjimasiga doir vositalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

3. *Umumiy terminologiya* – maxsus leksika (termin)larning umumiy xossalari, muammolarini o'rganadi.

4. *Xususiy terminologiya* – ma'lum bir tilning aynan bir sohasiga mansub bo'lgan terminlarni o'rganadi.

5. *Tipologik terminologiya* – alohida terminologiyalarni qiyoslab o'rganib, umumiy va alohida terminologiyaning xossalarini belgilaydilar.

6. *Chog.,ishtirma terminologiya* – turli tillardagi umumiy va maxsus terminologiyani chog'ishtirib o'rganadi va xossalarini keltirib chiqaradi.

7. *Semasiologik terminologiya* – maxsus leksemalarning semantika bilan bog'liq

muammolarini, semantik birliklarning o'zgarishi, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya kabilarni tadqiq qiladi.

8. *Onomastik terminologiya* – nomlashning maxsus leksemalarini, ularning nomlanish jarayoni, nomlashning optimal shaklini tanlashni tadqiq etadi.

9. *Tarixiy terminologiya* – terminologiya tarixini o'rganib, terminlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayonini tahlil etadi. Shu orqali terminlar tartibga solinadi. Shu yo'nalishning natijalariga asoslangan holda tilshunoslikda yangi mustaqil fan - antropolingvistika ajralib chiqdi.

10. *Funksional terminologiya* – zamonaviy terminlarning turli matnlardagi, professional muloqot holatlarida, mutaxassislarni tayyorlashdagi vazifalari, shu bilan birga nutqda va kompyuter tizimida terminlardan foydalanish xossalarini o'rganadi⁶.

Demak, saylov terminologiyasiga xos umumiy xususiyatlar umumtilshunoslikning yaxlit tizimidan ajratilmagan holda o'rganishni taqozo qiladi. Saylov terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, uning inson aqliy faoliyati, tajribalarining konseptual bosqichlari orqali namoyon bo'lishida kuzatiladi. Mazkur terminologik tizimda saylov tizimidagi bugungi kunda funksional jihatdan yetakchi terminlar vazifasini bajarayotgan terminlar o'z ifodasini topadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etiladi. Ikkinchi g'oyaga ko'ra esa u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, u "alohida turuvchi" obyekt hisoblanadi, nutqning turlariga (sheva, jargon, jonli so'zlashuv) tenglashtiriladi. V.P. Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (Danilenko, 1977). Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili, badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi hamda rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi, grammatikasi tashkil qiladi. X.Xyuellning qayd etishiga ko'ra terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz (Chambers, Uevel, 1967). Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslar (logik) uchun termin-aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi, unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin. Fan-texnikada termin-sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi. Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi.

Kodlangan(markerlangan)(logik) bo'linishning rivojlanish va takomillashishida yangi qadam sanaladi. XX asrning 30-yillarida ushbu masala bilan yaqindan shug'ullangan Praga lingvistik maktabi a'zolari N. Trubetskoy, R. Yakobson g'oyalarining 60-yillarda matnga mashina EHM yordamida ishlov berish, ya'ni matnlarni kodlash va qaytakodlash, ma'lumotlarni mashina yordamida axtarish, matnni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish singari jarayonlarda o'ta mahsuldor ekanligi isbotlandi. Kodlanmagan birliklarning nol ko'rsatkichli, tamg'alangan birliklarning esa tamg'alanmagan birliklarga nisbatan qo'shimcha ma'lumot tashishi jihatidan farqlanishi aniqlandi. Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lam muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi. Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi.

Umumadabiy til doirasiga o'tgan termin o'z terminologiyasi, terminologik maydoni va

sistemasidan yiroqlashadi, terminlik xarakteristikasidan ajralib qoladi. Termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi. O.Vinokurning fikricha, termin - har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda tilda paydo bo'lmaydi balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi. A.S.Gerdning mulohazasiga ko'ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir (Gerd, 1991). O.S. Axmanovanning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni noterminidan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir. V.G. Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi, terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir qo'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi (Gak, 1972).

V.P. Danilenkoning e'tirof etishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi (Danilenko, 1971). D.S. Lottening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga muvofiq mazmun planidagi sistemli munosabatlar terminlarning sistem xarakterga egaligini belgilaydi. Terminlarning terminlar sistemasidagi o'rni, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'rni, mavqei bilan aniqlanadi. Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos ketegorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi (Lotte, 1961).

Funksional nuqtai nazarga asosan terminlar maxsus so'z emas, balki maxsus funksiyaga ega so'zlardir; terminning o'rnida istalgan so'z qo'llanilishi mumkin. Derivatsion nuqtai nazar terminlarning yasallish jarayonlari bilan chambarchas bog'langan. Ushbu g'oya tarafdorlarining fikricha, termin nafaqat oddiy so'zning varianti, balki yangi, o'ziga xos spetsifik belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi. Terminga muayyan talablar qo'yiladi, ushbu jihat uni umum til, lahja hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi. Nomenklatura esa terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini o'zida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus strukturani taqozo etadi. Masalan, 200mingdan ortiq o'simlik turlarining har biriga alohida nom qo'yishga urinish befoyda. Chunki buning imkoni ham yo'q.

Insoniyat tabiatni bilish, anglash bosqichlarini o'zida aks ettiruvchi tabiiy fanlar nomenklaturasidan inson tomonidan kashf etiladigan, yaratiladigan (ishlab chiqarish nomenklaturasi) texnik nomenklatura, shuningdek, xaridorbop tovarlar bilan ta'minlash, ularni sotish maqsadida maxsus yuzaga chiqariladigan savdo-sotiq nomenklaturasini farqlash lozim bo'ladi. Garchi har uchala nomenklatura ham manfaatdor subyektlar tomonidan yaratilsa-da, ular turli asos, maqsad va prinsiplar negizida voqelanadi. Ilmiy bilish nomenlarining inson tomonidan yaratilgan ilmiy-texnikaviy nomenlardan farqi shundaki, ilmiy nomenlar tabiatda mavjud ammo ikkinchisi tabiatda mavjud emas. Narsa-buyumlar uchun kashfiyotchi tomonidan yaratilgan nom xalq tilidan olinmaydi (samolyot, vezdexod, samokat kabi birliklar bundan mustasno). Ushbu kategoriyalar, ya'ni nomenlarni ifodalovchi so'zlar o'z yoki chet tillardagi leksemlarga tayanilib, sun'iy ravishda yaratiladi, bunda harf va raqamlar indeksatsiyasi alohida ta'kidlanadi.

Fan turli sohalarining rivojlanishi jarayonida ayrim nomenlar terminlar tizimiga o'tishi, sof leksik nominativ birliklardan mantiqiy (logik) axborot, ma'lumot elementi, ya'ni ilm-fan terminiga aylanishi mumkin. Nomenklatura, garchi, tushunchaga aloqador bo'lsa-da, biroq u hisobsizdir.

Muayyan fan terminologiyasining esa miqdori, soni aniq, zotan, ular tushunchalar sistemasini ogʻzaki tarzda ifodalaydi. Maʼlumki, terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjudligi koʻpchilik tilshunoslar tomonidan maʼqullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda baʼzan ikki yoki undan ortiq sinonimlardan(dublet) foydalanish koʻzga tashlanadi. Chunonchi, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama istiloh soʻzlaridan sinonimik manba tarzida foydalaniladi. Shunisi maʼlumki oʻzbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin baʼzi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida termin oʻrnida atama derivatini qoʻllash faollashdi. Bir qaraganda, baynalmilal oʻzlashmaga har jihatdan mos tushgan oʻz soʻzning qoʻllanishi maʼquldek tuyuladi. Lekin termin oʻzlashmasining taʼrifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini koʻrsatadi.

Oʻz vaqtida A.Hojiyev termin soʻzini atama yasamasi bilan almashtirishning notoʻgʻri ekanligi, uning sabab va oqibatlari xususida jiddiy mulohaza yuritgan(Hojiyev, 1996). Shularni hisobga olgan holda, termin oʻzlashmasini ilm-fan, texnika sohalar yoki tarmoqlarida qoʻllanuvchi soʻz va soʻz birikmalari, atama soʻzini shartli ravishda qoʻyilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh oʻzlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish oʻzini oqlaydi (Madvaliyev, 2017).

AQSHda oʻtgan asrning 70-yillarida yuzaga kelgan *“The World Encyclopedia Dictioanry”* lugʻatida esa terminga quyidagicha taʼrif beriladi: *“Terminology - the special words and terms used in science, art, business and economy”*. Maʼnosi: terminologiya – fanda, sanʼatda, biznes va iqtisodda ishlatiladigan maxsus soʻzlardir. Yuqorida keltirilgan tilshunos olimlarning fikridan kelib chiqqan holda, oʻz nuqtayi nazrimizdan – termin” soʻziga quyidagicha izoh bersak boʻladi: – Tilning maʼlum sathidagina qoʻllanilib, maʼlum bir soʻz yoki soʻz birikmasining maʼnosini xususiy maʼno bilan ifodalab beruvchi soʻz yoki soʻz birikmasi”.

Atamashunoslikning kelib chiqishi Avstriyalik olim Oygena Vyuster va Dmitriy Semyonovich Lottelarning sharaflari nomlari bilan bogʻliq boʻlib, ular ilk tadqiqot ishlarini 1930-yilda nashr etganlar. Hozirgi vaqtda bir necha milliy maktablar – avstriya-nemis maktabi, frank-kanada maktabi, rus maktabi, Chexiya maktablari atamashunoslikning nazariy masalalariga turli tomondan yondashib, oʻz tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Ularning ichida Rossiya atamashunoslik maktabi yetakchilik qilmoqda, 2300 dan ortiq himoya qilingan dissertatsiyalar, 3500 dan ortiq terminlar oʻrganildi.

Xullas, terminlar umumadabiy soʻzlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni oʻzida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda oʻz aksini topadi:

Semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi oʻzaro simmetrik munosabatga kirishadi);

Vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi);

Semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalarni ifodalaydi, ularning har biri oʻz maʼnosiga koʻra unikaldir);

Tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umumadabiy tilga kirishi ularning boshqa sistemaga xosligiga toʻsqinlik qilmaydi); shakllanish yoʻllari, vositalari terminologiyada umumadabiy til soʻz yasalihi vositalarining harakati maxsuslashgan, standart, turgʻun modellarni ishlab chiqishga boʻysunadi (Danilenko, 1977).

Xulosa sifatida shuni taʼkidlash kerakki, jamiyatda tilshunoslik sohalarining rivojlanishi barobarida tilning lugʻat tarkibini oʻrganish uning fonetik, semantik va grammatik xususiyatlariga ham eʼtibor oshib boradi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki ayrim nomenlar terminlar tizimiga oʻtadi, sof leksik nominativ birliklardan mantiqiy (logik) axborot, maʼlumot elementi, yaʼni ilm-fan terminiga aylanishi mumkin. Nomenklatura, garchi, tushunchaga aloqador boʻlsa-da, biroq u hisobsizdir. Muayyan fan terminologiyasining esa miqdori, soni aniq, zotan, ular tushunchalar

sistemasini ogʻzaki tarzda ifodalaydi. Terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjudligi koʻpchilik tilshunoslar tomonidan maʼqullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda baʼzan ikki yoki undan ortiq sinonimlardan (dublet) foydalanilishi koʻzga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Chambers, R., & Whewell, W. (1967). *A nineteenth-century debate over the origin of language* (p. 287).
2. Golovin, B. N. (2005). *Hozirgi Oʻzbek adabiy tili*. Talqin.
3. Hojiyev, S. (1996). *Termin tanlash mezonlari* (pp. 22–25). Tashkent.
4. Rashidova, H. N. (2020). The concept of term and terminology in linguistic academic research in educational sciences. *Academic Research*, 1(3), 2181–1385. <https://www.ares.uz>
5. Gaka, V. G. (1972). *Traktovka yazykovoy izbytochnosti v lingvosemioticheskoy kontseptsii* (pp. 68–71).
6. Danilenko, V. P. (1977). *Russkaya terminologiya: Opyt lingvisticheskogo opisaniya* (pp. 9, 208, 246). Nauka.
7. Leychika, V. M., Novodranova, V. F., & others. (2003). *Leksikologiya. Terminovedenie. Stilistika* (p. 187). Pressa.
8. Lotte, D. S. (1961). *Osnovy postroyeniya nauchno-tehnicheskoy terminologii*. Izdatelʼstvo AN SSSR.
9. Narkhodjaeva, K. Sh. (2017). *Uzbek tilida jarayon anglatuvchi terminlarning lingvistik tadqiqi* (Doctoral dissertation, PhD in Philology). Tashkent.
10. Potebnya, A. A. (1989). *Slovo i mif*. Izdatelʼstvo "Pravda."
11. Rasulov, R. (2010). *Umumiy tilshunoslik*. Fan va texnologiya.
12. Ushakova, A. S. (1978). *Strukturnaya i prikladnaya lingvistika mezhvuzovskiy sbornik*.
13. *Uzbek tilining izohli lugʻati*. (2006). *Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. Retrieved from <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>
14. Usmonova, Sh. S. (2017). *Markaziy Osiyoda leksikologiya va leksikografiya: Anʼanalar va hozirgi zamon ilmiy maktablari* (pp. 28–30). Tashkent.